



JAZOLASH EMAS, JAMIYATGA QAYTARISH

Karim Xasanov

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18938651>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 4-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 10-mart 2026 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Ko'p hollarda huquqbuzarlarga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari og'irlashtirish va buning natijasida ularni bir qancha huquqlardan mahrum etish ularni jazolashning eng yaxshi vositasi deb qarash ustuvor ekanligi kuzatiladi. Ya'ni jazo choralari qilmishi uchun huquqbuzarlarni pushaymon qildirish, tavbasiga tayantirish va qilmishiga mutanosib "xo'rlash" uchun qo'llaniladi, degan fikr ustuvorligiga bot-bot duch kelamiz.

Aslida bunda ham asos bor, ya'ni bundan qariyb ikki yarim ming yil avval yashab o'tgan faylasuf Shan Yan shunday deya ta'kidlagan: "Qattiq jazo choralari qo'llab, huquqbuzarlik uchun o'zaro javobgarlik tizimi joriy qilinganda, insonlar o'zlarida qonun kuchini sinab ko'rishga jur'at qila olishmaydi". Ushbu fikrga tayanib, javobgarlik choralari faqat jazolash uchun xizmat qiladi, deyish noto'g'ri, albatta.

Bundan uch asr muqaddam yashab o'tgan Fransuz olimi Sharl Lui Monteskye o'zining "Qonunlar ruhi haqida" asarida jazo choralari qattiqlashgani sayin insonlar ularga moslasha boshlaydi, degan fikrni ilgari suradi. Shunday ekan, huquqbuzarlarga nisbatan javobgarlik choralari ularni jazolash maqsadida emas, balki ularni axloqan tuzatish, hayotga qaytarish va jamiyatga rehabilitatsiya qilish maqsadida qo'llaniladi.

Davlatimiz bir qator qonun hujjatlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jazo choralari mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qilish maqsadida qo'llanilishini ta'kidlaydi. Konstitutsiyamizning 20-moddasida ham davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak, degan norma belgilangan. Shuning uchun davlat huquqbuzarlarga ularni axloqan tuzatish uchun yetarli bo'lgan jazo choralari qo'llaydi va ularga jamiyatga rehabilitatsiya qilinishi uchun muayyan huquqlarni ta'minlaydi.

Yuqoridagilarning misoli sifatida yaqinda qonunchiligimizga o'zgarishtirish kiritildi. Joriy 2026-yilning 15-yanvar sanasida "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar uchun masofali video-uchrashuvlar o'tkazish imkoniyatini yaratishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1112-sonli Qonuni kuchga kirdi. Ushbu qonunga asosan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi bilan ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga o'z shaxsiy mablag'lari hisobidan to'lanadigan, o'n besh daqiqa davom

etadigan bir marta masofali video-uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashish huquqi beriladigan bo'ldi.

Yangi tahrirdagi Jinoyat-ijroiya kodeksining 54-moddasiga ko'ra, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tergov hibsonasining ma'muriyati hukm qonuniy kuchga kirganligi to'g'risida sud xabarnomasini olgan kundan boshlab o'n kunlik muddat ichida jazoni o'tash uchun jo'natiladi. Ushbu muddat davomida mahkum qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan bir marta qisqa muddatli uchrashish hamda o'z shaxsiy mablag'lari hisobidan to'lanadigan, o'n besh daqiqa davom etadigan bir marta masofali video-uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashish huquqiga ega. Eski tahrirga, ya'ni 2026-yilning 15-yanvar sanasigacha bo'lgan vaqtda mahkumga qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan bir marta qisqa muddatli uchrashish hamda o'z shaxsiy mablag'lari hisobidan to'lanadigan, o'n besh daqiqa davom etadigan bir marta telefon orqali so'zlashish huquqi berilar edi.

Biroq ushbu kodeksga o'zgartirish kiritilganidan so'ng mahkumning huquqlari bir darajada kengaytirildi. Endilikda mahkum, birinchidan, qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan bir marta qisqa muddatli uchrashish huquqiga, ikkinchidan esa, o'z shaxsiy mablag'lari hisobidan to'lanadigan, o'n besh daqiqa davom etadigan bir marta masofali video-uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashish huquqiga ega. Ya'ni, mahkum o'ziga nisbatan hukm chiqarilganidan so'ng jazoni ijro etish uchun jo'natilgunga qadar ilgari qonunchiligimizda mavjud bo'lmagan masofali video-uchrashuv huquqiga ega bo'ldi.

Shuningdek, mazkur kodeksning 77-moddasida ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlarga ularning ixtiyoriga ko'ra masofali video-uchrashuvlar yoki telefon orqali so'zlashuvlar huquqi berilishi belgilandi.

Qonunchilikka kiritilgan mazkur o'zgarishlar nafaqat insonlarning konstitutsiyaviy huquqlariga, balki xalqaro standartlarga ham muvofiq keladi. Xususan, AQShning Illinoys shtatiga tegishli "Jinoyat-ijroiya yagona kodeksi"ning 7-moddasida mahkumlarga ta'minlanadigan shart-sharoitlar qayd etilgan bo'lib, unda mahkumlar ozodlikdan mahrum etish joylarida boshqa shaxslar bilan uchrashish va video-uchrashuv huquqiga ega. Mahkumlar mazkur huquqlardan foydalanish uchun haq to'lashlari ham belgilangan.

Shuningdek, AQShda "Qamoqxonada video-uchrashuvni tashkil etish haqida"gi 2016-yildagi Qonun (Video Visitation in Prisons Act of 2016)" nomi ostidagi akt qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra mahkumlar ozodlikdan mahrum etish joylarida video-uchrashuvdan foydalanish huquqiga ega va buning uchun ular belgilangan to'lov to'lashadi.

Angliya va Uelsda mahkumlar maksimal to'rtta kishi bilan 60 daqiqalik video-suhbat tashkil etishi mumkin. Mahkumlarga oyiga ikki martalik 30 daqiqalik yoki bir marta 60 daqiqalik video-suhbat tashkil etish huquqi beriladi. Shuningdek, qamoqxona ma'muriyati bu muddatni ayrim sabablarga ko'ra uzaytirishi ham mumkin. Video-uchrashuvni tashkil etish uchun maxsus ilova (Prison Video) va veb-sayt joriy etilgan.

Fransiyada ham bir qancha tajribalar o'tkazilganidan so'ng 2021-yilda ozodlikdan mahrim etish joylarida mahkumlarning haq evaziga yaqin qarindoshlari va boshqa yaqin shaxslar bilan individual uchrashuv bilan bir qatorda video-uchrashuv tashkil etishga bo'lgan huquqlari o'rnatildi.

Dunyo miqyosidagi ko'plab rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida mavjud bo'lgan mahkumlarning video-uchrashuvdan foydalanish huquqining O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ham kiritilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamnafas ekanligini va uning qonunchilik tizimining takomillashayotganiga yaqqol misol bo'lib xizmat qiladi.

Mahkumlarga bunday turdagi huquqni ta'minlash O'zbekiston singari ijtimoiy davlatlarda inson qadr-qimmatininng qay darajada ta'minlanishini ko'rsatadi.

Zero, javobgarlikdan ko'zlangan asosiy maqsad – jazolash emas, aybdorni jamiyatga rehabilitatsiya qilishdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi
2. Secure video calls with prisoners. Ministry of Justice and HM Prison and Probation Service. Published 27 May 2020
3. Video Visitation in Prisons Act of 2016. Congress.gov | Library of Congress. <https://www.congress.gov>
4. "Qamoqxonada video-uchrashuvni tashkil etish haqida"gi 2016-yildagi Qonun, Illinois shtati, AQSh
5. Video calling: a new communications standard in prisons? March 20, 2022

